

NAJMIDDIN KUBRO- JASORAT, MARDLIK VA OLIYJANOBLIK NAMUNASI

Axmedova Munajatxon Jo'rayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada yirik tasavvuf olimi, xalq qaxramoni, otashnafas shoir, Kubroviya tariqatining asoschisi shayx Najmiddin Kubroning hayoti va faoliyati haqida so'z boradi. Bundan tashqari Najmiddin Kubroning mo'g'ullarga qarshi matonatli jang olib borganligi to'g'risida qisqa muhokamalar olib boriladi.

Kalit so'zlar: Najmiddin Kubro, Vatan, vatanparvarlik, Chingizxon, «Shayxi valiytarosh» - «Avliyolar yetishtiradigan shayx», jo'rubkash (supuruvchi), tariqat.

KIRISH

Yirik tasavvuf olimi, xalq qahramoni va otashnafas shoir Najmiddin Kubro 1145-yilda Xiva yaqinidagi hozirgi Sayot qishlog'ida tug'ilgan. Uning to'liq ismi - Ahmad ibn Umar Abuljannob Najmiddin al-Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy.. Yoshligidan hadis va kalom ilmlarini o'rgangan, Misr, Tabriz, Hamdonda tahsil olgan. Vataniga qaytgach, diniy faoliyat bilan faol shug'ullanadi, Urganchda "Kubraviya" birodarligiga asos soladi, arab va fors tillarida tasavvufga oid she'r va risolalar yozadi.

Uning iste'dodli shoir, buyuk vatanparvar ekanligiga shubha yo'q. Uning asarlarini mutaola qila turib borliqni anglaysiz. Uning tug'ilib o'sgan Xorazm o'lkasi uchun qilgan ishlari, ko'ngilga ta'sir qilmay qolmaydi.

«Shayxi valiytarosh» - «Avliyolar yetishtiradigan shayx» nomi bilan shuhrat qozongan bu ulug' inson tasavvufdagi mashhur kubraviya tariqatiga asos solgan. Bu tariqat ahlari xufiya zikrni targ'ib etganlar. Kubraviya ta'limoti asosan Markaziy Osiyo va qisman Eronga tarqalgan.

Najmiddin Kubroning o'nga yaqin asarlari fanga ma'lum. Uning, ayniqsa, «Al-usul al-ashara» («O'nta usul»), «Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalol» («Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi»), «Risalat ul-hoif ul-hoim an lavmat il-loim» («Qo'rquvchi ovvoralar va malomat etguvchi malomatiylar haqida»), «Tafsir», «Sharh us-sunna val-masolik» («Sunna va ezguliklar sharhi») kitoblari mashhur. Kubro o'z asarlarini asosan arab tilida yozgan. Faqat boshlovchi so'fiylar uchun qo'llanma sifatida yaratilgan «Fi odob us-solikin» («Soliklar odobi haqida») asari va ruboiylarini forsiyda bitgan. Ingliz sharqshunosi J.S.Trimingem «Soliklar odobi haqida» asari tasavvufning eroniylashuvida muhim bosqich bo'lganligini qayd etadi.

Najmiddin Kubro islom ahkomlari va tasavvuf talablarini xalq o'rtasida nazariy jihatdan targ'ib-tashviq qilish bilangina kifoyalanmay, o'zining mardona xatti-harakati

bilan uni amalda ham ko'rsatadi. Gap shundaki, mo'g'ul galalari Xorazm tuprog'iga bostirib kelganida u boshqa o'lkalardan kelgan muridlarning begona zaminda o'lib ketishlarini istamay, ularni tug'ilgan yurtlariga jo'natib yuboradi, o'zi esa shahar mudofaasiga o'tlanadi. Shogirdlarining birga ketish to'g'risidagi takliflariga javoban: «Men shu yerda shahid bo'laman. Menga Xorazmni tark etishga ruxsat yo'q!» - deydi va qo'liga shamshir tutib, qo'yniga tosh to'ldirib, yov qarshisiga chiqadi. Ularga tosh otadi, bir nechtasini nayza bilan urib yiqitadi. Dushmanlar unga kamondan o'q uzadilar. O'qlardan biri Shayxning ko'krigiga sanchiladi. Shahid bo'layotgan paytda u dushman qo'lidan bayrog'ini tortib olib, shu darajada mahkam siqib ushlaganki, o'n kishi bo'lib ham uning qo'lidan bayroqni olisholmagach, barmoqlarini kesishga majbur bo'lishgan.

Chingizxon Xorazmga bostirib kirgan vaqt, shayx Urganchda edi. Najmiddin Kubro nomi qadimgi Xorazm chegaralaridan tashqarida ham ma'lum bo'lgan davr edi. Chingizxon uning juda yaxshi inson ekanligini allaqachon eshitgan edi. Bosqinchi, shayx va uning oilasiga shaharni tark etishni taklif qiladi. Biroq Kubro qat'iy rad javobini berdi: «Men bu shaharda ko'p yillar mobaynida yashayman va har bir jon men uchun aziz. Ushbu og'ir kunlarda men ularni tark eta olmayman». Shundan keyin shafqatsiz zolim shaharga hujum qilishga qaror qiladi. Najmiddin Kubro dushman bilan jangga kirishdan oldin do'stlari va ustozlarini shaharni tark etishni so'raydi. Kubro o'zining fidoyi shogirdlari – quoldoshlari bilan mo'g'ul qo'shinini oxirigacha qaytarishga harakat qiladi, jang mobaynida ikki marta yaralangan. Birinchi jarohatdan keyin shayx chopon kiyib, yara izlarini yashirishga urinadi. Ikkinchi jarohatdan so'ng Kubro o'qni o'z qo'li bilan ko'ksidan chiqarib, osmonga uchirdi va Alloh taolaga xitob qildi: «Agar menga yaxshilik qilsang, meni do'stdek bilishni istasang, rahmating menga yetadi. Lekin najot so'rab senga murojaat qilsam, mening erkaklik nomusim qayerda qoladi?!»

Najmiddin Kubro kurashni davom ettirdi. Mo'g'ullar qo'liga tushganda ham dushman bayrog'ini qo'lidan qo'yib yubormadi. Mo'g'ullar bayroqlarini qaytarib olish uchun shayxning barmoqlarini shafqatsizlarcha kesib tashlashdi.

U zotning bosqinchilar qo'lida shahid bo'lgani haqidagi ma'lumot Rashiddiddin Fazlillohning «Jameatu-t-tavorix» («Tarixlar to'plami») hamda boshqa asarlarda yozilgan. Mo'g'ullar hukmdori Chingizxon Najmiddin Kubroning mashhur shayxlardan biri ekanini eshitgach, o'z chopari Imom Mujahtiddin orqali: «Men Xorazmni qatliom qilmoqchiman, Sizdek ulug'vor inson u yerni tark etib, huzurimga kelishingizni so'rayman», deya xabar yuboradi. Lekin Imom Mujahtiddin har qancha urinmasin, hazratni gapga ko'ndirolmaydi.

Taniqli adib Xurshid Davron “Shahidlar shohi” asarida bu voqeani to‘liq ifoda etgan. “Men o‘z yurtimni, o‘z xalqimni kulfatda tashlab ketmayman, – deydi Shayx Chingizxon elchisiga. – Men umr bo‘yi ahli kufu zalolat bo‘lmish zolimlar dargohidan, ularning nopok majlislaridan qochdim. Men umr mohiyatini sa‘yi harakatda ko‘rdim, dunyo qulligidan ozod bo‘lmoqqa intildim. Bildimki, eng noyob ne‘mat – qahramonlik, Olloh yo‘lida qilingan fidoyi jasorat ekan. O‘z qavmi, o‘z kulbasi, o‘z farzandini kufforlardan himoya qilish esa ulug‘ saodatdur”.

Shayx yurt himoyachilariga qarata shunday deydi: “O‘lim haq, hech kim undan qochib qutulolmaydi, ammo Vatan uchun jon bermoqdan o‘zga sharaf yo‘qdur. Xudoyim elchisi o‘z hadislarida: “Vatan sarhadini bir kun himoya etmoq oltmish yillik nafl ibodatidan afzalroqdir”, demishlar. Illo, o‘limimiz boshqalarga ibrat bo‘lsin!”

Shuningdek Najmiddin Kubro o‘zining “Favoih al-jamol va favotih al-jalol” (“Jamol xushbo‘yliklari va jalolning kashfi”, “Al-usul al-ashara” (“O‘nta usul”), “Risola at-turuq” (“Tariqatlar risolasi”), “Risolat al-xoif al-hoim min lavm al-loim” (“Malomatchining malomatidan hazar qiluvchi haqida risola”) va boshqa asarlari orqali haqiqat asroriga yetish yo‘llarini izladi va shu yo‘lda o‘z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasi ko‘ra, inson o‘z mohiyati e‘tibori bilan “mikrokosm”, ya‘ni kichik olam bo‘lib, o‘zida koinotning barcha unsurlarini mujassamlashtiradi. Ammo haqiqat yo‘lini qidiruvchilar kamolotga erishishlari uchun ma‘lum riyozatli yo‘llardan o‘tishlari zarur. Bu yo‘llar o‘nta usuldan iborat bo‘lib, ular Tavba, Zuhd fi-dunyo, Tavakkal, Qanoat, Uzlat, Mulozamat az-zikr, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Rizodir. Bu yo‘llardan natija shuki, o‘lmaydigan shaxsning yodi uning nafsini mag‘lubiyatga uchratgan sifatlarda yashaydi.

Najmiddin Kubroning yana boshqalarga o‘xshamagan qirralaridan biri shuki, u zot valitarosh, ya‘ni valiylarni parvarishlab tayyorlovchi, deya e‘tirof etiladi va chindan ham, umrlari davomida o‘n ikki kishini muridlikka qabul qilib, barchalarini shayxlik darajasiga yetkazgan. Ularning safida Farididdin Attorning padari buzrukvor Majididdin Bag‘dodiy, Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad, Najmiddin Doya Roziy, Sa‘diddin Hamaviy, Sayfiddin Baxorziy va boshqalarni uchratishimiz mumkin va aytish kerakki, ularning har biri o‘z davrining yetuk insonlari sifatida e‘tirof etilgan.

Temuriylar sulolasining so‘nggi qudratli vakillaridan biri va buyuk shoir bo‘lmish Husayn Boyqaro bir kuni turkiy she‘riyat sultoni Hazrat Mir Alisher Navoiyga qarata aytadi: “Agar men podshohlik ishlari ila shug‘ullanishdan qo‘l tortishga jazm etsam, Shayx Najmiddin Kubro mozori ostonasining jo‘rubkashi (supuruvchisi) bo‘laman”.

Umuman olganda, kekxa shayx va donishmand inson – Najmiddin Kubroning ilmiy faoliyati, kamolot darajasi, qahramonligi va jasorati avlodlarga munosib ibrat namunasidir.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz joizki Najmiddin Kubro shaxsi mardlik, jasorat, oliyjanoblik va sadoqat ramzi desak mubolag'a bo'lmaydi. Najmiddin Kubroning qilgan qaxramonliklari og'ir vaziyatda mo'g'ullarga bo'yin egmay dushmanga qarshi so'ngi tomchi qoni qolguncha kurashganligi odamni hayratga soladi. Bugun dunyoning olovli nuqtalarida yurtga xiyonatni "shahidlik" va "oliy saodat" bilib yurganlar bu buyuk tarixdan xabardormikanlar deb o'ylab qolasan kishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. / Sh.M.Mirziyoyev 1-tom, - T.: "O'zbekiston", 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. / I.A.Karimov. -T.: "Ma'naviyat", 2016.
4. Komilov N. TASAVVUF (Ikkinchi kitob). -T.: "O'zbekiston". 1999.
5. Komilov N. "Tasavvuf". 1-kitob. -T.: "Yozuvchi", 1996.
6. Rahimov M., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. -T.: "Fan", 2019.
7. Jumaboy Rahimov. Vatanning sheryurak bahodiri. -T.: "O'qituvchi". 2015.